

OZODLIKDAN MAHRUM ETISH TARIQASIDAGI JAZO IJROSINI O'TAYOTGAN MAHKUMLARDA KRIMINOGEN MOTIVATSIYA SHAKLLANISHINING OLDINI OLISH CHORALARI

Zakirova Adina Gulyamovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kafedra professori,
yuridik fanlar doktori, professor

Amonova Lobar

IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo ijrosini o'tash joylaridagi kichik guruhlarining tavsiflari, ushbu joylarda mahkumlar o'rtasida konfliktlar keltirib chiqaruvchi omillar, ijtimoiy muhit, jazoni ijro etish muassasalarida jinoyatchilikning ijtimoiy belgilari, ushbu muassasalardagi kriminogen vaziyatning asosiy elementlari yoritib berilgan hamda ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni ijro etayotgan mahkumlarda kriminogen motivatsiya shakllanishining oldini olish choralari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ozodlikdan mahrum qilish, ijtimoiy muhit, kriminogen vaziyat, mahkumlar, ziddiyatlar, koloniya, zo'rlik.

Abstract. This article describes small groups in correctional facilities, factors contributing to conflicts among inmates in prisons, the social environment, social markers of crime in penal institutions, and the main elements of the criminogenic situation in these institutions. It also outlines organizational measures to prevent the formation of criminogenic motivation among convicts serving sentences in the form of deprivation of liberty.

Keywords: deprivation of liberty, social environment, criminogenic situation, convicts, colony, violence.

Ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo ijrosini o'tash joylaridagi kichik guruhlarining tavsiflari bir-biridan ancha farq qiladi. Chunonchi, avvalgi ijtimoiy munosabatlar, ya'ni inson ozodlikdagi hayot va muloqot sharoitlarida ega bo'lgan tasavvurlar ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo ijrosini o'tash joylarida to'liq qabul qilinishi va amalga oshirilishi mumkin emas. Ular ko'pincha o'zining avvalgi amaliy ahamiyatini yo'qotadi. Yangi salbiy ijtimoiy muhit, inson ko'nikmagan mehnat va yashash sharoitlari, rejim talablari uning oldiga butunlay boshqacha talablarni, faoliyatning yangi vazifalarini qo'yadi. Bunda yangi muhitga moslasha olmaslik aksar hollarda jinoyatlar sodir etilishi bilan yakunlanadigan ziddiyatlar sababi hisoblanadi. Shu sababli, ko'pgina mutaxassislar ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo ijrosini o'tash joylarining muhiti uzoq muddatli kriminogen vaziyat sifatida amal qiladi, deb hisoblaydilar. Masalan, G.G. Slobodyanyuk jazoni ijro etish muassasalarida jinoyatchilikning ijtimoiy belgilanganligi masalalarini o'rganar

ekan, kriminogen vaziyatlarni qayd etadi va ularni tiplarga ajratishni taklif qiladi. Kriminogen vaziyatning asosiy elementlari sifatida u quyidagilarni ajratadi:

ijtimoiy rollarning to'qnashuvi natijasida vujudga keladigan mahkumlar o'rtasidagi ziddiyatlar;

mahkumlar va erkin yollangan xodimlar o'rtasidagi ziddiyatlar;

mahkumlar va jazoni ijro etish muassasalarining xodimlari yoki huquqni muhofaza qilish organlarining boshqa xodimlari o'rtasidagi ziddiyatlar;

ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo ijrosini o'tash joylarida jazoni o'tash munosabati bilan qondirilmagan ehtiyojlar (ichki ziddiyat);

alohida holatlar (jinoyat sodir etish; favqulodda oilaviy holatlar; xizmatni bajarish vaqtida jinoiy beparvolikka yo'l qo'yish).

Ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo ijrosini o'tash joylarida mahkumlar o'rtasidagi konfliktlarning sabablari majmuida jinoiy xulq an'analari va odatlarining ulushi 15,8% ni tashkil etadi. Ayni shu omil mahkumlar o'rtasida

vujudga keladigan ziddiyatlarning sababi sifatida ham qayd etiladi (6,3%). Xuddi shunday fikrlarga boshqa tadqiqotlarda ham alohida urg'u beriladi [1; 60-62 b].

Yangi kelgan mahkum o'z ijtimoiy qarashlariga mos keladigan, kelgusida o'z ehtiyojlarini qondiradigan, oldida turgan muayyan maqsadlarni ro'yobga chiqaradigan, a'zolari orasida yuksakroq shaxsiy maqomga ega bo'ladigan guruhga kirishga harakat qiladi. Bunday guruhlar doimo otryad va koloniyadagi ijtimoiy-psixologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular mahkumlar mikromuhitida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladilar, havaskorlik tuzilmalarining faoliyatini izdan chiqaradilar, muassasaga yangi kelgan mahkumlarning ijtimoiy-psixologik moslashish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Jinoyat-ijroiya tizimi muassasalarida jinoiy an'analar va odatlarning "tashuvchilari" hisoblanadigan mahkumlarning guruhlarini neytrallashtirish, ko'pincha mahkumlar tomonidan yangi g'ayriqonuniy harakatlarning sodir etilishiga turtki beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ayrim hollarda bunday qarama-qarshilik shaxsga qarshi jinoyatlar sodir etilishiga olib keladi. Bizningcha, bu hodisa mahkumning jinoyat vositasida ijtimoiy maqbul natijaga erishishga urinish sifatida tavsiflanishi mumkin. Ideal holatda ijobiy tavsiflanadigan mahkum zo'rlik ishlatib harakatlarni sodir etish jarayonida salbiy tavsiflanadigan mahkumning sog'lig'iga yoki hayotiga tajovuz qiladi. Mazkur holatda voqealar rivojining ko'plab variantlarini taklif qilish mumkin. Ammo bir narsa aniqki, ularning hammasi odatda bitta natija — yangi jazo muddati tayinlanishi bilan tugaydi. Ushbu vaziyat ayrim tadqiqotchilarni qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar — zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatlarida mahkumlarning harakatlari masalalarini o'rganishga turtki bo'lgan [2; 111-b]. Ularda yozilishicha, mahkumlar muhitida salbiy kayfiyatdagi shaxslar jinoyat-ijroiya tizimining xodimlariga, ularning ish usullariga nisbatan salbiy munosabatni odatdagi yo'llar bilan uyushtiradilar, salbiy guruhlar uchun qulay bo'lgan mahkumlar orasida jamoatchilik fikrini shakllantiradilar, ozodlikdan mahrum qilish joylarida huquqiy tartibotni mustahkamlash borasidagi faoliyatga qarshilik ko'rsatadilar, ba'zan jazoni ijro etish muassasalari ishini izdan chiqaradigan harakatlarga turtki beradilar.

Ularning bunday maqsadlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash muassasalaridagi xodimlarning mahkumlarning shaxsiy ishlariga aralashuvini imkon qadar kamaytirishga erishish;

jazoni o'tash davrida jazoni ijro etish muassasalari xodimlaridan mumkin qadar ko'proq qulayliklar olish;

mahkumlar uchun o'zlarining xulq-atvorlariga loyiq bo'lmagan moddiy va ma'naviy ne'matlarga erishishlarini osonlashtirish;

mahkumlar jazoni ijro etuvchi muassasalarining tezkor qismlari vakillari bilan aloqa qilishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida ularning muloqotlari ustidan qattiq nazoratni o'rnatish;

mahkum ozodlikdan mahrum qilish joyida ma'muriyatning ko'rsatmalari va farmoyishlariga emas, balki kriminal submadaniyat me'yorlariga amal qiladigan xulq-atvorning ideal andazasini o'rnatish.

Shaxslararo munosabatlarning guruhlashgan tuzilishi va dinamikasini o'rganish salbiy tusdagi kichik guruhlar ta'sirini susaytirish va hatto bartaraf etishning ikki yo'lidan: psixologik-pedagogik va ma'muriy usullardan foydalanish imkonini berdi. Ammo, ming afsuski, amaliyotda psixologik-pedagogik usullardan to'laqonli foydalanilayotgani yo'q. Ko'pgina jazoni ijro etish muassasalarining ma'muriyati mahkumlarda g'ayriijtimoiy maqsadlarning shakllanishi uchun sharoit yaratuvchi salbiy omillarga ta'sir ko'rsatishning asosan ma'muriy vositalarini qo'llashmoqda.

Ma'muriy yo'nalish maxsus profilaktik-rejim tadbirlarini ham, tarbiyaviy tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Mazkur tadbirlarning bosh maqsadi salbiy tusdagi norasmiy kichik guruhlarini aniqlash va tarqatib yuborishdan iborat. Bunday guruhlarini tarqatib yuborish ularning eng faol a'zolarini qisman yoki to'liq ajratishga asoslanadi. Ularning ajratilishi shunga olib keladiki, guruh a'zolari o'rtasidagi aloqalar buziladi yoki butunlay barham topadi, shu tariqa aniqlangan guruhlarning jipsligi susayadi.

Jinoyatga olib keluvchi holatlar ko'pincha mahkumlarning norasmiy guruhlarida, turli guruhlar o'rtasida, shuningdek guruhlar va ayrim shaxslar o'rtasida yuzaga keladi. Shu bois, ularni o'rganishda jazoni ijro etish muassasalaridagi guruhlarga tavsif-sxemalar tuzish maqsadga muvofiqdir. Bunday sxema-

larda guruhlarining tuzilishi (liderlar; muayyan obro'ga ega bo'lgan mahkumlar; ikkinchi darajali shaxslar; guruhni qo'llab-quvvatlovchi shaxslar) aks ettiriladi. Jazoni ijro etish muassasalarining xodimlari bunday tavsif-sxemalar bilan muntazam ravishda tanishib borishlari norasmiy guruhlar liderlarining salbiy ta'sirini neytrallashtirish bo'yicha yanada izchil ish olib borish, ularga yangi a'zolar qabul qilinishining oldini olish choralari ko'rish imkoniyatini beradi.

Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarda kriminogen motivatsiya shakllanishining oldini olishning yana bir muhim tomoni konfliktlar profilaktikasidir. Ayrim mualliflar fikriga ko'ra, "mahkumlar o'rtasida ziddiyatlarni aniqlash jazoni ijro etish muassasalari barcha xizmatlarining doimiy vazifasidir" [3; 52-b.], zero aynan ziddiyatlar ozodlikdan mahrum qilish joylarida mahkumlar o'rtasidagi ijtimoiy keskinlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ammo shuni qayd etish lozimki, bu masalaning yechimi xususida mutaxassislar hali bir to'xtamga kelganlaricha yo'q.

Bu holat shu bilan izohlanadiki, mahkumlar o'rtasidagi ziddiyatlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular ozodlikdan mahrum qilish joylarida mavjud bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq. Obyektiv omillar qatoriga, avvalo, mahkumlar muhiti va muloqot doirasining yopiqqligini, ijtimoiy foydali aloqalarning cheklanganligini, shaxs ijtimoiy nufuzining pastligini, shuningdek mahkumlar tarkibining beqarorligini (ayniqsa umumiy va ma'lum darajada qattiq tartibli koloniyalarda) kiritish mumkin.

Subyektiv omillarga asosan quyidagilar kiradi:

- xulq-atvorni ichki tartibga solishdagi kamchiliklar (o'zini qo'lga ola bilmaslik, agressivlik, jizzakilik, shafqatsizlik);

- salbiy qadriyatlar va maqsadlar (qiziqishlar va mayllarning oddiyligi, cheklangan va tuban ehtiyojlar);

- axloqiy darajaning pastligi;

- ijobiy hayot tajribasiga oid kamchiliklar;

- muhitning salbiy ta'sirlariga qarshilik ko'rsata olish qobiliyatining pastligi.

Aytish joizki, jinoyat mahkumlar o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarni yechishning asosiy shakli, degan qarash odat tusini olgan. Jinoyat faqat mahkumlar muhitidagi ziddiyatlar, undagi

g'ayriijtimoiy an'analar mavjudligi bilan emas, balki ularning xulq-atvoriga oid biologik ehtiyojlarining muayyan ta'siri bilan ham bog'liq. Ayni shu asosga ko'ra, mahkumlar ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tayotgan davrda ularda kriminogen motivatsiya shakllanishining oldini olish masalasi bunday motivatsiya ozodlikda shakllanishining oldini olishdan farq qiladi. Shunga qaramay, buning samaradorligi jazoni ijro etish muassasasida huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ishning samaradorligi bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, mahkumlar orasida ziddiyatlarni o'z vaqtida aniqlash va mazkur ziddiyatlarni g'ayriqonuniy yo'llar bilan yechishga urinishlarni to'xtatish nafaqat mahkumlarda zo'rlik ishlatish maqsadlarining shakllanishini oldini olishning asosiy vositasi, balki mahkumlar o'rtasida vujudga keluvchi nizoli masalalarni yechishning asosiy shakli ham hisoblanadi. Ba'zi mualliflarning [4; 115-b], fikriga ko'ra, jazoni ijro etish muassasalarida jiddiy vajlarsiz sodir etiladigan shaxsga qarshi tajovuzlarning aksariyati ozodlikdan mahrum qilish joylarining "yozilmagan" an'analariga ziddir [5]. Ammo mazkur qoidalariga amal qiluvchi mahkumlar ba'zan zo'rlik ishlatishga "ma'naviy huquq" beruvchi asoslarni sun'iy yo'llar bilan izlab topishga harakat qiladilar.

Ilgari nashr etilgan adabiyotlarda mahkumlar orasida muayyan qonuniyatlar mavjudligiga oid fikrlar bildirilgan. Chunonchi, A.I. Mokretsov va I.V. Shmarov fikriga ko'ra, mazkur qonuniyatlar "salbiy tusdagi guruhlar qancha kam bo'lsa, ziddiyatlarga kirishuvchi mahkumlar soni shuncha oz bo'ladi, o'z-o'zidan ziddiyatlar soni ham kamayadi" [6; 70-b].

Shu sababli o'zlariga qulay bo'lgan "yozilmagan" xulq-atvor qoidalarini o'rnatadigan va o'z harakatlari bilan turli ziddiyatli vaziyatlarni bevosita yoki bilvosita yaratadigan mahkumlarning eng salbiy qismi ta'sirini kamaytirish profilaktika faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanishi lozim. Bu yerda qo'shimcha moddiy mablag'lar olish manbalariga barham berish va bir mahkumning boshqa mahkumlarni o'ziga bo'ysundirishdek zararli hodisaga chek qo'yish mazkur ishning muhim yo'nalishiga aylanishi darkor. Shuningdek, bu ishda tashqi dunyo bilan norasmiy aloqa yo'llarini to'sish zarur, negaki mahkumlar muhitida bu ko'pincha g'ayriqonuniy jarayonlarga turtki beruvchi omil hisoblanadi.

Jazoni ijro etish muassasasida o'zining salbiy xulq-atvori bilan ajralib turadigan obro'li mahkumlarda mavjud ustunliklarni ro'yobga chiqarish imkoniyatini istisno etuvchi sharoitni yaratish ham juda muhim sanaladi. Muassasaning barcha xizmatlari o'zlarining bevosita vazifalarini lozim darajada bajargan taqdirda, bu maqsadga amalda erishish mumkin.

Yuqorida bayon etilganlar ayrim mahkumlar xulq-atvorining o'ta ziddiyatliliigi ular shaxsida sodir bo'ladigan g'ayriijtimoiy deformatsiyalar bilan bog'liq bo'lib, ba'zan ular aksilijtimoiy faoliyatda faollik ko'rsatishdan kelib chiqishi mumkinligi haqidagi fikrlarni uyg'otadi.

Shu bois, o'zlariga qulay bo'lgan "yozilmagan" xulq-atvor qoidalarini o'rnatadigan va o'z harakatlari bilan rang-barang ziddiyatli vaziyatlarni bevosita yoki bilvosita yaratadigan mahkumlarning eng salbiy qismi ta'sirini kamaytirish profilaktika faoliyatining yakuniga aylanishi lozim, degan qarashlarni quvvatlash mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, ozodlikdan mahrum qilish joylarida shaxsga jamiyatdan ajratish sharoiti bilan bog'liq bo'lgan bir qancha omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni kamaytirish maqsadida bo'sh vaqtini o'tkazishning estetik jihatdan sermazmun bo'lgan turli shakllarini tashkil etish muammolariga, chunonchi: oqshomlar, sport tadbirlari, suhbatlar o'tkazishga, shuningdek ozodlikdagi shaxslar bilan mahkumlarning sog'lom aloqalarini mustahkamlashga ko'proq e'tibor berish lozim.

Shaxsning xulqini prognoz qilishga asos bo'la oladigan indikator- belgilarni tanlash individual profilaktikaning murakkab vazifasi hisoblanadi.

Mahkumlar shaxsi kriminogen maqsadlarning barqarorlik darajasi haqida aniqroq xulosa chiqarish imkonini beradi va bunday belgilar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

jinoyat-ijroiya tizimi muassasalarida jazoni o'tash tartibini buzuvchi harakatlarni sodir etishga moyillik, shu jumladan turli zo'ravonliklarda ishtirok etish; axloqan tuzalish yo'lga kirgan mahkumlarni haqorat qilish; muassasalar ma'muriyatining vakillariga bo'ysunmaslik; atrofdagilarga (shu jumladan muassasa xodimlariga) va muassasada mavjud tartiblarga o'zining hurmatsiz munosabatini har xil yo'llar bilan namoyish etish;

ayni bir (odatda, ijobiy ta'riflanadigan) mahkumlar bilan barqaror takrorlanuvchi ziddi-

yalarni zo'rlik ishlatish yo'li bilan hal qilishga moyillik;

agressiv xulq-atvorning spirtli ichimliklar va (yoki) giyohvandlik moddalarini surunkali yoki ko'p iste'mol qilish bilan uyg'unlikda amalga oshirilishi;

zo'rlik ishlatib sodir etiladigan harakatlar bilan bo'lgan jinoyatlar uchun ilgari sudlanganlik (bunda shaxsga qarshi jinoyatlar bilan bir qatorda zo'rlik ishlatishning og'ir shakllari bo'lgan bosqinchilik, talonchilik, tovlamachilik va bezorilik uchun sudlanganlik holatlarini hisobga olish lozim);

parazitizm (jazoni ijro etish muassasasi korxonalarida ishga joylashish imkoniyatining cheklanganligi kabi obyektiv sabablar mavjudligidan qat'i nazar), vaqtini behuda sovurish agressiv xulq-atvorning shaklanishiga salbiy ta'siri;

zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etish niyatini bildirish (o'ldirish yoki badanga shikast yetkazish bilan qo'rqitish hollari) va (bir seksiyada yashovchi, bir otryad yoki ishlab chiqarish brigadasidagi) boshqa mahkumlarga nisbatan boshqa turdagi agressiv xatti-harakatlar;

turli-tuman taqiqlangan buyumlar, avvalo, sanchuvchi-kesuvchi ashyolar, shuningdek jazoni ijro etish muassasasida g'ayriqonuniy harakatlar sodir etish uchun mo'ljallangan moslamalar yasash, ularni qo'lga kiritish yoki saqlash holatlari.

Shu bilan birga, bunda subyektiv belgilarni, xususan: mahkum shaxsining dag'allik, qo'rslik, agressivlik, surbetlik, xusumat kabi xususiyatlari; deviant xulq-atvorning turli shakllariga moyillik (ichkilikbozlik, giyohvandlik, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan seksual harakatlar); maqsadga erishish yo'lida hech narsadan tap tortmaslikni ham hisobga olish lozim.

Bu omillarning barchasini hisobga olish kriminologik diagnostika uchun, muayyan mahkumning jinoyat sodir etish imkoniyatini prognoz qilish va ular bilan individual-profilaktika ishlarini olib borish usullarini aniqlash uchun juda muhimdir. Ko'rsatilgan usullar qatoriga ishonitirish va majburlash, zarur yordam ko'rsatish, atrof muhitning salbiy ta'sirlarini kamaytirish va nazorat (avvalo muassasa ma'muriyati tomonidan) kiradi.

Umuman olganda, penitensiar muassasalarda mahkumlarning g'ayriqonuniy xulq-atvorini prognoz qilish o'zaro bog'liq bo'lgan ikki muammoni yechishni nazarda tutadi.

Individual xulq-atvorni prognoz qilish. Uni yechishning istiqboli yo'nalishlaridan biri prognoz qiluvchi baholar tizimini ishlab chiqish va unga muvofiq takroriy jinoyat sodir etish xavfi darajasiga ko'ra mahkumlar tasnifini tuzish. Bu usul muayyan hayotiy vaziyatlarda mahkumlar xulq-atvorining individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Mahkumlar muhitida kriminogen keskinlik darajasining umumiy prognozi. Bu muammoni yechish quyidagilarni nazarda tutadi:

a) otryadlardagi o'zaro munosabatlarni sifat nuqtayi nazaridan tahlil qilishning umumiy sxemasini ishlab chiqish;

b) sodir etilgan huquqbuzarliklarni ma'muriyat tomonidan o'rganishda mahkumlarning xulq-atvorini hisobga olish;

v) kriminogen keskinlik indikatorlarini aniqlash.

Bu tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlarini jazoni o'tash davrida mahkumlar tomonidan sodir etiladigan salbiy harakatlarning oldini olish borasidagi chora-tadbirlariga monand ravishda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bizningcha, bunday tadbirlar qatoriga quyidagilarni kiritish o'rinli bo'ladi:

mahkumlarning ajratilishini ta'minlash; mahkumlar tomonidan jinoiy harakatlar sodir etilishining oldini olish va bunday harakatlarni to'xtatish maqsadida muassasada mahkumning xulq-atvori ustidan muntazam nazoratni o'rnatish; mahkumlar ichki tartib-qoidalarga rioya etishlarini nazorat qilish;

tartibni buzuvchilarga intizomiy ta'sir choralari to'g'ri qo'llash;

mahkumlar jazoni ijro etish muassasasi hududida bir joydan boshqa joyga ko'chishini tartibga solish uchun ishlab chiqarish va yashash zonalarini alohida qismlarga ajratish;

muassasada mehnat jarayoniga mumkin qadar ko'proq mahkumlarni jalb qilish; imkon qadar ularga ixtisosliklari bo'yicha ishlash imkoniyatini berish.

Fikrimizcha, otryad boshlig'i bu ishni bevosita amalga oshirishi va yo'lga solishi lozim. Negaki, jazoni ijro etish muassasalarida aynan shu toifa xodimlari mahkumlar ishonchiga ko'proq sazovor bo'ladilar. Otryad boshlig'i muassasaning eng kichik bo'g'ini-otryadda yuz berayotgan jarayonlardan boshqalarga qaraganda yaxshiroq xabardor bo'ladi.

Ko'rcatilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda olinayotgan tegishli xabarlar bo'yicha

xavfli ziddiyatlar rivojlanishi va agressiv guruhlar shakllanishining dastlabki bosqichidayoq tegishli choralar ko'rilishiga erishish muhim hisoblanadi. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar yuz berishi ehtimoli haqida olingan ma'lumotlar bo'yicha chora ko'rish masalasi jazoni ijro etish muassasalarida profilaktika ishi tizimidagi eng zaif bo'g'in hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlar ko'ra, muassasalarda jinoyat bilan tugaydigan vaziyatlar kam uchraydi. Ularning zamirida ikki haftadan uch oygacha davom etgan ziddiyatli vaziyatlar yotgan. Tayyorlanayotgan jinoyat haqida nafaqat otryaddagi mahkumlarning ko'pchiligi, balki boshqa otryaddagilar ham bilgan. Tayyorlanayotgan jinoyat haqida yetarli ma'lumot bo'lgan holda, uning oldini olish uchun ma'muriyat lozim darajada samarali chora ko'rmagan. Bunday vaziyatlarda olinayotgan signallar bo'yicha chora ko'rish shaklini tanlash juda muhimdir.

Professor V.I.Guskov qayd etganidek: "Takroriy jinoyatchilik darajasi ko'p jihatdan axloq tuzatish-mehnat muassasalari mazkur ishni qanday tashkil etishi va amalga oshirishi bilan belgilanadi" [7; 6-b]. O'z navbatida, professor A.N.Struchkov mahkumlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning sabablarini tahlil qilar ekan, shunday deb yozadi: "Tabiiyki, mahkum jazoni o'tash davrida jinoyat sodir etishi yoki sodir etmasligi amalda ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish qanday tashkil etilganiga ko'p jihatdan bog'liqdir" [8; 37-42-b.].

Tadqiqotimiz predmetidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, muassasada profilaktika ishini to'g'ri tashkil etish kriminogen motivatsiyaning shakllanishiga mustahkam to'siq yaratishi mumkin.

Ayni chog'da profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda jazoni ijro etish muassasasi barcha xizmatlarining o'zaro hamkorligiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bizningcha, quyidagilar jazoni ijro etish muassasalarining tarkibiy bo'linmalari o'rtasida samarali va izchil hamkorlikning muhim shartlari hisoblanadi:

qonun va qonunosti normativ hujjatlariga qat'iy rioya etish;

hamkorlik subyektlarining vakolatlarini aniq belgilash;

hamkorlikning har bir subyekti tomonidan yuklatilgan vazifalarning mustaqil bajarilishi hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi vositalari va usullaridan samarali foydalanishga asoslangan tashabbuskorlikni rag'batlantirish;

muntazam ravishda axborot ayirboshlash;
har bir subyekt huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha o'z sheriklarining imkoniyatlarini bilishi.

Tadqiqotimiz davomida shaxslarning aksariyati jazoni o'tashning dastlabki yillari va hatto oylarida o'zlariga nisbatan sodir etilgan jinoyatlardan jabr ko'rganliklarini tasdiqladi. Bu davr asosan jinoyatchilar muhitiga mahkumning moslashishi, undagi xulq-atvor me'yorlari, an'analarni o'zlashtirishi bilan bog'liq. Shu sababdan A.I.Mokretsov: "Axloq tuzatish-mehnat koloniyalarida saqlanishning dastlabki davrida o'z xulq-atvor uslubini belgilab olmagan individlar turli kichik guruhlarining norasmiy munosabatlariga duchor bo'lishlari mumkin. Chunonchi, mazkur guruhlar yangi kelgan mahkumlardan o'z nuqtayi nazarini, atrof-dagilarga munosabatini tushuntirishni hamda mahkumlarning rasmiy uyushgan tuzilmalari oldida turgan maqsad va vazifalarni bajarishni talab qilishlari mumkin" [9; 32-33-b], degan haqli xulosaga keladi.

Shu bois ham jinoyat sodir etilishining oldini olish choralari jinoyatchilar muhitiga mahkumning qo'shilish jarayoni normal kechishini, uning tahqirlanishiga va unga zo'rlik ishlatilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlashi kerak.

Bunda, jinoiy harakatlarning oldini olishga ularning amalga oshish xavfi paydo bo'lgani zahotiyoq kirishilishi lozim. Shunga muvofiq, profilaktika tadbirlari tergov hibsonasida, shaxs qamoqqa olingan zahoti amalga oshirilishi darkor. Aynan shu yerda o'zini ijobiy tomondan namoyon qilgan mahkumlardan tegishli axloqiy-ruhiy muhitni yaratishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, gumon qilinuvchi qamoqqa olinganida, agar u birovga tazyiq o'tkazishi mumkin deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, bunday harakatlarning oqibatlari va buning uchun uning shaxsiy javobgarligi haqida uni ogohlantirish lozim.

Qamoqqa olingan shaxs jinoiy tajovuz obyekti bo'lishi xavfi mavjud bo'lgan hollarda (agar u dastlabki qamoq joylariga birinchi marta tushgan bo'lsa va mahkumlar davrasida mavjud bo'lgan qarashlar va an'analarga zid bo'lgan harakatlarni sodir etgan bo'lsa), kamerada o'zini tutish qoidalari va ularni buzish oqibatlari unga tushuntirilishi lozim. Shuningdek, u ziddiyatli holatlarda o'zini qanday tutishi lozimligini bilishi kerak.

Alohida ta'kidlash lozimki, ozodlikdan mahrum qilish joylarida sodir etiluvchi jinoyatlarning oldini olish aksariyat hollarda mahkumlardagi kriminogen motivatsiyaning shakllanishiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Negaki, bizningcha, ayni holda "taqlid effekti" amal qiladi. Voyaga yetmagan mahkumlar xulq-atvorini o'rgangan V.A.Grishin fikriga ko'ra, "...mahkumlar uchun g'ayriqonuniy xulq-atvorda taqlid effekt ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi" [10; 24-b].

Aynan shu sababli biz jazoni o'tash davrida mahkumlar tomonidan sodir etiladigan har qanday salbiy harakat hisobi yuritilishi lozim deb hisoblaymiz. Chunki bunday hisobni yuritish zo'rlik ishlatish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarning oldini olish tadbirlarini yanada mukammal ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirish uchun imkoniyat yaratadi hamda profilaktikaning yanada optimal shakllarini aniqlash va ularni amalga joriy etish ishiga ko'maklashadi. Shuningdek, hisob yuritish materiallaridan mazkur yo'nalishda ijobiy tajriba almashishda foydalanish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, jinoyatlarning samarali individual profilaktikasi jinoiy-huquqiy choralarga ko'p jihatdan bog'liq. Shuning uchun ularni quyidagi maqsadlarda qo'llash maqsadga muvofiq:

a) mazkur shaxsga ko'rsatilishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarning manbalarini tugatish, basharti bunday harakatlar jinoyat xususiyatiga ega bo'lsa;

b) jinoyat hisoblanadigan harakatlar uchun javobgarlikka tortish yo'li bilan undan og'irroq jinoyatlarning oldini olish.

Buning uchun ozodlikdan mahrum qilish joylarida mahkumlar davrasidagi shafqatsizlikning barcha ko'rinishlarini, mahkumlarni haqorat qilish va ularning badaniga shikast yetkazish bilan bog'liq barcha holatlarni hisobga olish lozim. Jamiyatdan ajratish sharoitlarida bunday harakatlarning ijtimoiy oqibatlari ozodlik sharoitidagi shunday harakatlarning ijtimoiy oqibatlaridan ancha farq qiladi. Jinoiy an'analarda mazkur harakatlarning ta'sirini yanada kuchaytiradi va ularni atrof-dagilarga nisbatan qo'rqituvchi omilga aylantiradi. Shu sababli zo'rlik ishlatib sodir etilgan rejimni buzish holatlari bo'yicha tekshiruvlar o'tkazganda ularni sodir etgan mahkumlarning motivlari va maqsadlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat-ijroiya tizimining ayrim muassalarida ma'muriyat mahkumlar orasida shafqatsizlik va zo'rlik ishlatish hollariga qarshi kurashning ahamiyatiga lozim darajada e'tibor bermaydi yoki muassasada go'yo bu borada ishlar joyidadek qilib ko'rsatishga harakat qiladi. Bunday noxolislik pirovard natijada shunga olib keladiki, jinoyatchilikka qarshi kurash ishida eng "zaif" jabhalarni aniqlashga qodir bo'lgan kishilar javobgarlikdan qo'rqib bundan o'zlarini olib qochadilar.

Jazoni o'tash davrida mahkumlarda kriminogen motivatsiya shakllanishiga imkoniyat yaratadigan tashqi va ichki omillar tahlili amalga oshirilganidan so'ng, uning oldini olish borasidagi ishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ldi. Zero, g'ayriqonuniy faoliyatni o'rganishga bag'ishlangan har qanday tadqiqot, pirovard natijada uning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqarishga qaratilishi lozim.

Profilaktika ishining mazmuni esa, ozodlikdan mahrum qilish joylarida mahkumlarda kriminogen motivatsiya shakllanishiga imkoniyat yaratuvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan tarbiyaviy, rejimga oid va jinoiy-huquqiy xususiyatga ega bo'lgan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat bo'lishi lozim. Bunday tadbirlar ham umumiy, ham maxsus yo'nalishga ega bo'lishi darkor.

Z.S.Zaripovning fikricha, umumiy ogohlantirish chora-tadbirlariga quyidagilar kiradi:

ozodlikdan mahrum qilish joylarida mahkumlarda kriminogen motivatsiya shakllanishiga imkoniyat yaratuvchi sabab va sharoitlarni aniqlash;

kriminogen omillar ta'sirini susaytirish, ideal holatda esa uni bartaraf etish bo'yicha aniq choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

mahkumlar shaxsining aniqlangan kriminogen omillar ta'sirini susaytirishi mumkin bo'lgan ijobiy omillarning shakllanishi uchun zarur sharoitlar yaratish;

mahkumlarni nazorat qilish, ularni ajratish, ularning mehnati, moddiy-maishiy va tibbiy ta'minoti, tezkor-qidiruv va tarbiya ishlari bo'yicha ayrim tarkibiy bo'linmalar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlarini belgilash.

Maxsus ogohlantirish chora-tadbirlariga quyidagilar kiradi:

salbiy xulq-atvorga ega bo'lgan shaxslarni,

shuningdek kriminal submadaniyat turmush tarziga jalb qilishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash;

mazkur shaxslarni, shuningdek xulq-atvorning norasmiy me'yorlariga amal qiluvchi mahkumlarning norasmiy guruhlarida ishtirok etishga moyil bo'lgan shaxslarni profilaktik hisobga quyish;

profilaktika qilinuvchilarni va ularning hayot faoliyati sharoitlarini har tomonlama va chuqur o'rganish;

profilaktik ta'sir ko'rsatish hamda mahkumlarda kriminogen yoki g'ayriijtimoiy maqsadlar shakllanishiga yo'l quymaslik choralarni ko'rish usullarini aniqlash;

profilaktika qilinuvchilarga nisbatan ijobiy ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

jazoni o'tash vaqtida ham, ozodlikka chiqqandan keyin ham mahkumning salbiy xususiyatlariga ularning xulq-atvorga ta'sirini yumshatish uchun bevosita ta'sir ko'rsatish;

mahkumda muayyan hayotiy maqsadlar shakllanish jarayoni ustidan muntazam nazorat olib borish.

Ozodlikdan mahrum qilish joylarida mahkumlarda kriminogen motivatsiya shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri — bu jazoni o'tashning o'rnatilgan tartibini ashaddiy buzuvchilar, jinoiy dunyo "avtoritetlari", mahkumlar norasmiy guruhlarining a'zolari tarqatuvchi kriminal submadaniyatdir. Shu bois, ushbu shaxslarni mahkumlarning asosiy ommasidan ajratish zarur deb hisoblaymiz.

Bunga erishish uchun:

g'ayriijtimoiy maqsadlari barqaror bo'lgan barcha mahkumlarni jazoni o'tashning o'rnatilgan tartibini ashaddiy buzuvchilar deb e'tirof etish;

kriminal submadaniyatni targ'ib qiluvchi mahkumlar orasidan norasmiy liderlarni aniqlash;

mahkum haqida ishonchli va to'liq axborotni zudlik bilan olish uchun ma'lumotlarning maxsus elektron manbalarini yaratish (takroriy jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan bunday ma'lumotlar manbalari tergov organlarigagina emas, balki mazkur shaxslarga doir ishlarni ko'rayotgan sudlarga ham ochiq bo'lishi lozim);

norasmiy liderlarni va ularga yaqin bo'lgan mahkumlarni profilaktik hisobga qo'yish zarur.

Sanab o'tilgan tadbirlarni e'tiborga olgan holda, ushbu toifadagi mahkumlarni asosiy ommadan alohida saqlash — norasmiy liderlarni “hakamlik” funksiyasidan mahrum

etish imkonini beradi, bu esa ularning kriminogen ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Слободянюк Г. Г. Социально-правовая оценка преступления и проблемы исполнения наказания в виде лишения свободы: Учебное пособие. — Домодедово, 1990. — 60-62-б.
2. Огурцов Н.А., Меркурьев В.В. Дискуссионные вопросы уголовноправовой квалификации деяний, совершенных в состоянии необходимой обороны // Проблемы уголовной ответственности и наказания. — Рязань, 1997. — 63-б.: Меркурьев В.В. Чорный В.Н. Необходимая оборона как способ обеспечения личной безопасности осужденных в исправительных учреждениях // Уголовная политика и международное право: проблемы интеграции — Владимир, 1997. — 111-б.
3. Поздняков В. И., Усс А.В. Предупреждение и разрешение конфликтов в МТУ // Проблемы профилактики правонарушений в местах лишения свободы. — М., 1985. — 52-б.
4. Старков О.В. Бытовые насильственные преступления. — Рязань, 1994 —15-б.
5. Mazkur an'anaviy me'yorning mavjudligi, tabiiyki, shaxsga qarshi tajovuzlarning barchasi ma'lum darajada “odilona o'ch olish” olishdan iborat ekanligini anglatmaydi. Birinchidan, ushbu qoidaga hamma mahkumlar va barcha vaziyatlarda ham amal qilavermaydilar. Ikkinchidan, “jiddiy vaj”. “yetarli asoslar” tushunchalarining o'zi ko'pincha mahkumlar tomonidan umuminsoniy axloq talablariga zid ravishda talqin qilinadi.
6. Мокрецов Л.И.,Шмаров И.В. Ko'rsatilgan manba. — 70-б.
7. Гуськов В.И. Профилактика рецидивной преступности. осуществляемая исправительно-трудовыми учреждениями. — Рязань, 1979. — 6-б.
8. Стручков Н.Л. Советская исправительно-трудовая политика и ее роль в борьбе с преступностью. — Саратов, 1970. —72-б.; Зарипов З.С. Безбородов Л.Г Криминологические и социально-правовые аспекты предупреждения преступности военнослужащих // Хуқуқ.Право.Law. — 2003. — №1. —37-42-б.
9. Мокрецов А.И. Психология личностных взаимоотношений осужденных в ПТУ // Социологические и социально-психологические проблемы отбывания наказания. — М, 1982. — 79-б.; Исмаилов И. Теоретическое и организационно-правовое обеспечение предупреждения деятельности организованных преступных формирований: Автореф. дис. ...д-ра юрид. наук. — Т., 2006. — 32-33-б.
10. Гришин В. А. Криминологические и правовые проблемы с тяжкими преступлениями против личности в воспитательно-трудовых колониях: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. — М.,1982. — 19-б.; Файзуллаева В. Г. Влияние негативных изменений в социальной среде на криминализацию несовершеннолетних и молодежи и предупреждение преступлений среди них: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. — Т. 2004. — 24-б

